

O‘ZBEKISTON PROKURATURASI TARIXI MUZEYINING QATAG‘ON QURBONI BO‘LGAN PROKURATURA XODIMLARI XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISHGA BAG‘ISHLANGAN EKSPOZITSIYA TAHLILI



Gulra'no Orifjonova

O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi direktori,
tarix fanlari doktori (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19381680>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyining Qatag‘on qurboni bo‘lgan prokuratura xodimlariga bag‘ishlangan bo‘limi ekspozitsiyasining konseptual-tematik tuzilishining asoslari, zamonaviy ekspozitsiya yaratish metodlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: muassasa, muzey, sohaviy-idoraviy muzey, innovatsiya, 5 D effekt, kompleks metod, gologramma, smart texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье проанализированы основы концептуально-тематической структуры экспозиции отдела Музея истории прокуратуры Узбекистана, посвященной работникам прокуратуры, ставшим жертвами репрессий, методы создания современной экспозиции.

Ключевые слова: учреждение, музей, отраслево-ведомственный музей, инновации, эффект 5 D, комплексный метод, голограмма, смарт-технологии.

Annotation. This article analyzes the basics of the conceptual and thematic structure of the exposition of the Department of the Museum of the history of the prosecutor's Office of Uzbekistan dedicated to employees of the prosecutor's office who were victims of repression, methods of creating a modern exposition.

Key words: institution, museum, industry-departmental museum, innovation, 5 D effect, complex method, hologram, smart technology.

O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyidagi Qatag‘on qurboni bo‘lgan prokuratura xodimlariga bag‘ishlangan bo‘lim 2024-yilning 7-dekabr kuni o‘z faoliyatini boshlagan. 2023-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shahidlar xotirasi hiyobonida “...har bir soha o‘zida qatag‘on bo‘lgan xodimlarni o‘rgansin” deb bergan konseptual topshiriqlari natijasida Bosh prokuraturada ilmiy tadqiqot ishlari boshlandi. Qatag‘on qurboni bo‘lgan prokuratura xodimlariga bag‘ishlangan ekspozitsiya mazkur ilmiy izlanishlar natijasida yaratilgan [5;4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 31-avgust kuni “Shahidlar xotirasi” xiyobonida berilgan konseptual fikrlar va topshiriqlarni so‘zsiz ta‘minlash 2023-yil 11-sentabr kuni «Qatag‘on qurboni bo‘lgan prokuratura organlari xodimlarining xotirasini tiklash va abadiylashtirish» yuzasidan Bosh prokurorning 40-F-son Farmoyishi ijrosi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar [5;5] natijasida O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyida Qatag‘on qurboni

bo‘lgan prokuratura xodimlari xotirasini abadiylashtirishga bag‘ishlangan yangi ekspozitsiya o‘z faoliyatini boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 31-avgust kuni “Shahidlar xotirasi” xiyobonida berilgan konseptual fikrlar va topshiriqlarni so‘zsiz ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hamda Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bilan memorandum imzolandi. Prokuratura xodimlari va Qatag‘on qurboni xotirasi davlat muzeyi ilmiy xodimlaridan iborat Respublika Ishchi guruhi tuzildi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida Samarqandda O‘zbekiston prokuraturasining ilk binosi hamda Jizzax qo‘zg‘oloni ishtirokchilari saqlangan qamoqxonada topildi. Mazkur tadqiqot doirasida grant amalga oshirildi. “Tarixiy xotira beqiyos” kitobining har biriga 40 nafardan qatag‘on bo‘lgan prokuratura xodimlari kiritilgan birinchi va ikkinchi jildlari nashr etildi. “Oltin qalam” XVIII Milliy mukofotining “Publitsistik janrdagi eng yaxshi kitob uchun” nominatsiyasi bo‘yicha “Tarixiy xotira beqiyos” kitobi [6;3] g‘olib deb topildi. Qatag‘on bo‘lgan prokuratura xodimlari hayot yo‘lini aks ettirgan ko‘plab hujjatli filmlar hamda badiiy asarlar, tarixiy-hujjatli romanlar yaratildi. Qozog‘iston Respublikasida ekspeditsiya uyushtirilib, surgun qilingan qatag‘on qurbonlari saqlangan ALJIR, KARLAG lagerlarida tashkil etilgan muzeylar faoliyati tadqiq etildi.

Mazkur bo‘limda Turkiston Muxtoriyati, Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi, Buxoro xalq sovet respublikasi, Xorazm xalq sovet respublikasi, O‘zbekiston sovet sotsialistik respublikasi hamda uning tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar kesimida qatag‘onga uchragan prokurorlar va ularning vatan ravnaqiga qo‘shgan hissasi namoyish etilgan. Bundan tashqari 40-50, 60-70, 80-yillardagi qatag‘on bo‘yicha ham stendlar yaratilgan. O‘zbekiston rivoji uchun katta hissa qo‘shgan Abdurahim Yusufzoda, Boboovun Salimov, Sultonqori Jumaniyozov, Mirzo Qo‘qonboy Abduxolliqov, Sa‘dulla Po‘latxo‘jayev mulyajlari yaratildi[4;78]. Surgunga yuborilgan huquqshunoslarning ayanchli taqdirini aks ettiruvchi GULAG dagi mehnat lageri sahnasi, Mirzo Qo‘qonboy Abduxolliqovning Jizzax qo‘zg‘oloni ishtirokchilari ustidan bo‘lgan sudda ko‘rsatgan jasorati, o‘zbek zamonaviy huquqshunosligining asoschisi Muhammadjon Mo‘minov [3;128] va uning rafiqasi Diloru Yusupovalarning tergov jarayonidagi uchrashuvi, Sa‘dulla Po‘latxo‘jayevning sud jarayoni, otuv jarayoni aks sahnalar audial vositalar bilan boyitilgan bo‘lib tomoshabinda katta taaassurot qoldiradi. Qatag‘on yillari ramzi hisoblangan “qora qarg‘a” nomi bilan mashhur bo‘lgan tarixiy avtomobil muzeyning nodir eksponatlaridan hisoblanadi. Jizzax qo‘zg‘oloni ishtirokchilari saqlangan 1912-yilda barpo etilgan Qizil armiyachilar turmasi nomi bilan mashhur bo‘lgan qamoqxonadan keltirilgan tarixiy eshik vositasida yaratilgan hisbxona tomoshabinlarda davr muhitiga tushish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari muzeyda qatag‘onning oilalar boshiga solgan daxshatlari, surgan jarayoni, mehnat lagerlari va otuv jarayonidagi faktlar asosida yaratilgan ko‘rgazmalar ham mavjud. “Oyna” installatsiyasi qatag‘on yillaridagi jamiyat ko‘zgusini aks ettirgan. Ilmiy tadqiqotlar jarayonida aniqlangan 30 dan ortiq otuvga hukm qilingan prokurorlarga bag‘ishlangan foto ko‘rgazma ham yaratilgan[4;97]. Bundan tashqari izlanishlar jarayonida 160 dan ortiq qatag‘on bo‘lgan prokurorlar aniqlanib, ularning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan “Tarixiy xotira beqiyos” kitobining birinchi [5;372] va ikkinchi[6;316] jildlariga 80 nafar shaxs kiritilgan.



Ilmiy tadqiqotlar davomida 160 dan ortiq qatag'on qilingan prokuratura xodimlari aniqlangan, ulardan 30 nafari otuvga hukm qilingan bo'lsa, qolganlari GULAG lagerlariga surgunni o'tash uchun yuborilgan. Ko'rib turganingiz ushbu vagonga orginal hisoblanadi, bu kabi vagonlarda insonlarni GULAG lagerlariga jazoni o'tash uchun yubrishgan, 20 ta odam arang sig'adigan vagonga 40 dan ortiq insonlarni tiqib sovuq o'lkalarga surgun qilishgan. Noqulay sharoit sabab ko'plab odamlar yo'llarda vafot etgan.

Monitor orqali namoyish etilayotgan film GULAG lagerlariga surgun qilingan odamlarning hayoti va mehnat qilish jarayoni aks etgan xronika hisoblanadi.

Devordagi surat ham tarixiy foto bo'lib, mehnat lagerlarida ishlayotgan odamlarning faoliyatini aks ettiradi.

Mazkur ekspozitsiyani yaratish jarayonida ilmiy tadqiqotlar olib borgan Ishchi guruh a'zolari Qozog'istonning Oqmola va Qarag'anda viloyatlarida saqlanib qolgan GULAG lagerlariga borib ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ushbu sahnada ham Karagandadagi ko'mir konida ishlovchi surgunga yuborilgan insonlarning hayoti aks ettirilgan.






Tasvirdagi qush martlet deb nomlanib, oyoqlari kichkina bo'lganligi sababli u osmonda uchib yurgan, uning yerga tusha olmasligi sababi odamlarni doim o'ylantirgan. Keyinchalik bu qush obrazi doimiy ravishda o'rganish va bilimga intilishning ramzi sifatida ko'ri-la boshladi [6;1].

Oksforddagi Vorester kolleji, Kembrijdagi Pembrok kolleji, Makgill universiteti, Xyuston universiteti hamda uning huquq markazi, Viktoriya universiteti va boshqa ilm dargohlarining ham ramzi sifatida qo'llaniladi. Martlet qushi haqida afsona ham yaratilgan, bir podshohning to'rt o'g'li bo'lib, birinchisi otasidan boylikni meros qilib oladi, ikkinchi o'g'il din ya'ni zohidlik yo'lini tanlaydi, uchinchi harbiy ilm, armiyani oladi, to'rtinchi o'g'ilga moddiy boyliklar nasib etmaydi, unga yaratuvchanlik meros qoladi. Shu sababli u farovonlikni o'zi yaratishi lozim edi, martlet qushi timsolida mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, iroda, matonat ramzi mujassam. Uzoq asrlar davomida ushbu qush timsoli qirollarning gerbida, ko'plab sulolalarning geraldikasida mavjudligi bejiz emas[5;1].

O'zbekiston prokuraturasi tarixida qatag'on bo'lgan xodimlarni o'rganish jarayonida ularning barchasini bir jihat birlashtirganiga guvoh bo'ldik. Qanday qismat kutayotganini bilsa ham iroda bilan yo'lida bardavom borish, adolat bayrog'i, hurlik, erkinlik tug'ini yurtimiz osmoni uzra ko'tarish, erkin va demokratik jamiyatni barpo etish, xalqning huquqiy savodxonligi, madaniyati va ma'rifatini yuksaltirishga urinish, haqiqat, adolat va huquqni tiklashga urinish yaqqol namoyon bo'lgan.



“Qora qarg‘a” avtomobili 1930-yillardagi qatag‘onning timsoli bo‘lib, xalq tilida “qora qarg‘a”, “qora quzg‘un” deb nomlangan. Bu avtomobil qaysi uyning oldiga kelib to‘xtasa, o‘sha xonadon boshiga qora kunlar kelgan, unda olib ketilgan odamlar boshqa uylariga qaytishmagan. “Qora qarg‘a” mashinasi mahallaga kirganda odamlar yana qaysi oilaning boshiga falokat keldi ekan deb titrab turishgan. Ushbu ekspozitsiyadan avtomobil bilan bog‘liq tarixiy suratlar ham o‘rin olgan.



Xulosa qilib shuni aytish joizki, qatag‘on qilingan prokurorlar va mazkur shaxslarning reabilitatsiyasi uchun jon kuydirgan insonlarni aks ettirgan mavzuli ko‘rgazmalar muzeyni yanada boyitgan. Bir ekspozitsiyaning yaratilish tarixi deb nomlangan stend orqali qisqa vaqt davomida

ishchi guruh tomonidan qo‘lga kiritilgan yutuqlar namoyish etiladi. Muzeining yangi ekspozitsiyasi tarixiy foto va videofaktlar asosida yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Orifjonova G.R. O‘zbekiston muzeylari innovatsion rivojlanish kesimida (XX asr oxiri – XXI asr boshlari). Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi (DSc) – Toshkent, 2025. – 237 b.
2. Муҳаммаджон Мўминов – ўзбек замонавий ҳуқуқшунослигининг асосчиси. – Тошкент: Encyclopedia world, 2024. – 128 б.
3. Орифжонова Г. Ўзбекистон прокуратураси тарихига оид музейларнинг инновацион ривожини // Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Ахборотномаси. – Тошкент, 2024. – № 1. – Б. 97-99.
4. Орифжонова Г. Ўзбекистон прокуратураси тарихи музейи ташкил қилиниш зарурати ва фаолияти // Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Ахборотномаси. – Тошкент, 2025. – № 3. – Б. 76-80.
5. Тарихий хотира беқиёс. 1-жилд. –Т. “Encyclopedia world”, 2024. – 372 б.
6. Тарихий хотира беқиёс. 2-жилд. –Т. “Encyclopedia world”, 2024. – 316 б.